

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.B.02.08. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ISHANQULOVA DILAFRUZ ULUGBEK QIZI**

**JIZZAX SHAHRIDA INTRODUKSIYA ETILGAN DARAXT  
BUTALARNING TURLAR XILMA-XILLIGI VA BIOEKOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Ishanqulova Dilafruz Ulugbek qizi**

Jizzax shahrida introduksiya etilgan daraxt butalarning turlar xilma-xilligi va bioekologik xususiyatlari ..... 3

**Ишанкулова Дилафруз Улугбек қизи**

Разнообразие видов и биоэкологические особенности деревьев и кустарников, интродуцированных в городе Джизаке ..... 19

**Ishankulova Dilafruz Ulugbek qizi**

Species diversity and bioecological features of trees and shrubs introduced in the city of Jizzakh..... 35

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 39

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.B.02.08. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ISHANQULOVA DILAFRUZ ULUGBEK QIZI**

**JIZZAX SHAHRIDA INTRODUKSIYA ETILGAN DARAXT  
BUTALARNING TURLAR XILMA-XILLIGI VA BIOEKOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PHD/B542 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Haydarov Xislat Qudratovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Keldiyarov Xudoyar**  
biologiya fanlari nomzodi, professor

**Raximova Tura**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.02.08 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «6» dekabr kuni soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti binosi majlislar zali. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks (+99866) 239-11-51, E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (25 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «20» noyabr kuni tarqatildi.  
(2024-yil «20» noyabr № 14 raqamli reyestr bayonnomasi)



**T.F.Rajabov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d.

**M.S.Kuziyev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.d. (PhD), dotsent

**S.X.O'roqov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo miqyosida shaharsozlik va sanoat tarmoqlarining rivojlanishi natijasida, aholi maskanlarini ko‘kalamzorlashtirishda, mikroiklimni optimallashtirishda manzarali introdutsent daraxt va butalardan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Biologik xilma-xillikni o‘zgarishi va shahar urbanizatsiyasining jadal rivojlanish jarayonida introduksiya qilingan manzarali daraxt va butalarni tadqiq etishda ulardan samarali foydalanish zamonaviy botanikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Zamonaviy dendrologik tadqiqotlarda, aholi maskanlarining daraxt va butalardan iborat yashil hududlar bilan qoplanishi zarurligi e‘tirof etilgan. Shu nuqtayi nazardan, aholi yashash hududlarini ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish asosida turli iqlim omillariga chidamli bo‘lgan introdutsent manzarali daraxt va butalar o‘ta ahamiyatli bo‘lib, ularning turli abiotik va biotik omillarga moslashuvchanligi, taksonomik tarkibi, bioekologik xususiyatlarini o‘rganish va monitoringini amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yuqori sanoat infrastruktura tarmoqlariga ega aholi hududlarini ko‘kalamzorlashtirishda moslashuvchanlik va yashovchanlik xususiyatlari yuqori bo‘lgan, turli ekologik omillarga chidamli bo‘lgan manzarali daraxt va butalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, O‘rta Osiyoning keskin kontinental va qurg‘oqchil mintaqalariga *Picea*, *Platycladus*, *Juniperus*, *Paulownia*, *Rhus*, *Pinus*, *Catalpa*, *Acer*, *Fraxinus* va boshqa turlarni ko‘kalamzorlashtirish uchun keng joriy etilayotganligi diqqatga sazovordir. Mazkur xildagi o‘simliklarni o‘sish va rivojlanish xususiyatlarini ilmiy asoslash, turli ekologik omillarga chidamliligini aniqlash va ko‘paytirish samaradorligini oshirish yo‘llarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shu o‘rinda, turlarning bioekologik xususiyatlarini aniqlash hamda ularni keng ko‘lamda ko‘kalamzorlashtirishga tavsiya etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda shaharlarni obodonlashtirish, infratuzilmasini yaxshilash va zamonaviy arxitektura qoidalariga mos ravishda ko‘kalamzorlashtirish ishlarini olib borishga e‘tibor qaratilmoqda. Bu o‘rinda keskin kontinental iqlimga mos keladigan daraxt va butalarning namunalari kengaytirildi, ko‘kalamzorlashtirish uchun chidamli yangi tur va navlari iqlimlashtirildi, ularning istiqbolli vakillari respublikamiz viloyatlarini obodonlashtirish tarmoqlariga joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «... atrof-muhit muhofazasi va genofondga yetkaziladigan ekologik muammolarning oldini olish»<sup>1</sup> vazifasi belgilab berilgan. Bu o‘rinda keskin kontinental iqlim sharoitlarida muhim ahamiyatli manzarali daraxt va buta turlarining biologik xususiyatlarini asoslash, turli ekologik omillar ta‘sirida ulardagi o‘zgarishlarni aniqlash va ko‘kalamzorlashtirishga tatbiq etish tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni.

to'g'risida" gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PF-46-son "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrda PF-199-son "Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Introduksiya qilingan daraxt va butalarning dastlab tabiiy tarqalish areali, gullash biologiyasi, sistematikasi, turli xil sharoitlarda urug' unuvchanligi, bioekologik xususiyatlari va iqlim omillari ta'sirida ularning rivojlanishi borasidagi tadqiqotlar xorijlik olimlar R.S.Logan (2000), Loacker va boshqalar. (2007), Fang va boshqalar (2009), Widenfalk va boshqalar. (2009), Bradley va boshqalar (2010), Shahat va boshqalar (2011), Lenda va boshqalar (2012), Sjöman va boshqalar (2012), Yang va boshqalar (2013), A.D. Bergdahl, A.A. Hill (2016), Janku va boshqalar (2017), Zhang va boshqalar (2018), Potapenko va boshqalar (2020), Zamengo va boshqalar (2020) ning ishlarida keng yoritilgan.

MDH mamlakatlarida ham Ye.M. Shkaraba (2003), A.G. Gayanov (2001), A.I. Vidyakin (2004), Yu.N. Karpun (2004), Ye.A. Paraxina (2005), T.Yu. Konovalova (2007), V.F. Abaimov (2009), V.V. Merker (2009), M.V. Baxanova (2009), I.O. Bogovaya (2012), R.I. Loskutov, M.I. Sedayeva (2014), M.A. Mkrtchyan (2014), K.V. Putenixina va boshq. (2015), Ye.A. Borisova (2012), N.A. Molganova, S.A. Ovesnov (2017, 2021), L.V. Vetchinnokova, A.F. Titov (2020), Tromifuk va boshq. (2021) kabi olimlar tomonidan daraxt va butalarning tabiiy tarqalish areallari, introduksiya sharoitidagi bioekologik xususiyatlari va moslashuvchanligi, shaharlarning urbanizatsiya jarayonida turli ekologik omillar ta'sirida daraxt va butalarning rivojlanishi borasida tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Markaziy Osiyo respublikalarida, xususan O'zbekistonda introduksiya qilingan daraxt va butalarni bioekologik xususiyatlari, ulardan manzarali o'simliklar sifatida foydalanish va ularni keng miqyosda qo'llash borasida qator tadqiqotlar olib borilgan. Bu boradagi aniq maqsadga yo'naltirilgan dastlabki tadqiqotlar F.N. Rusanov (1950, 1971), A.U. Usmanov (1974), I.V. Belolipov (1990) va N.I. Shtonda (1995) tomonidan olib borilgan. O'tgan asrning oxirlaridan boshlab, bu boradagi tadqiqotlar ko'lami ortib borishi kuzatildi. Xususan, M.X. Axunov (1966), N.V. Drobchenko (1990), L.X. Yoziyev (2001, 2018, 2020), T.O. Otenov (2009), R. Babajanov (2010), A.K. Qayimov (2012), X.D. Mirzakarimova (2012), N.K.

Raxmatova (2018), B.X. Boysunov (2018), E.E. Temirov (2019), B.T. Kurbaniyazov (2020) va boshqalar tomonidan introduksiya qilingan daraxt va butalardan manzarali o'simliklar sifatida keng foydalanish borasida amaliy ishlar qilingan.

Respublikamiz miqyosida, introduksiya qilingan daraxt va butalar borasida ko'pgina tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramay, hozirgi kunga qadar Jizzax shahrida introduksiya qilingan manzarali daraxt va butalarni bioekologik xususiyatlarini va xilma-xilligini o'rganishga bag'ishlangan aniq maqsadli tadqiqotlar olib borilmagan. Shu boisdan, hududda introduksiya qilingan daraxtlarning bioekologik xususiyatlari, ularning tabiiy tarqalish areali va kelib chiqish markazlari, mavsumiy rivojlanish maromi, gullash biologiyasi, shahar sharoitida introduksion baholash hamda ulardan ko'kalamzorlashtirishda tavsiyalar berish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax davlat pedagogika instituti ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq № 05-2018 "Jizzax viloyati florasining bioxilma-xilligini o'rganish, innovatsion tadqiqotlar o'tkazish va ularni muhofaza qilishning biologik asoslarini aniqlash" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Jizzax shahrida introduksiya qilingan daraxt va butalarning turlar xilma-xilligi hamda ularning bioekologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Jizzax shahri hududidagi introdutsentlarni taksonomik tahlil qilish hamda kelib chiqish markazini aniqlash;

tanlab olingan manzarali daraxt va butalarning bioekologik xususiyatlarini aniqlash;

turlarning mavsumiy rivojlanish va gullash biologiyasini ochib berish;

tanlab olingan turlarning dala sharoitda urug' unuvchanligini aniqlash;

turlarning monitoringini olib borish va introduksion baholash;

Jizzax shahrini ko'kalamzorlashtirishda turli ekologik omillarga chidamli manzarali daraxt va butalarni introduksiyasi uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Sapindaceae oilasiga mansub *Aesculus hippocastanum*, Betulaceae oilasidan *Betula tianschanica*, Moraceae oilasidan *Broussonetia papyrifera*, Ulmaceae *Ulmus pumila* Cupressaceae oilasidan *Platycladus orientalis*, Pinaceae oilasidan *Pinus nigra* subsp. *Pallasiana*, Buxaceae oilasidan *Buxus sempervirens*, Lythraceae oilasidan *Lagestroemia indica*, Malvaceae oilasidan *Hibiscus syriacus*, Oleaceae oilasidan *Syringa vulgaris* turlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** manzarali daraxt va butalarning istiqbolli turlarining tarqalishi, o'sish va rivojlanishi, fenologiyasi, gullashi, urug' hosil qilishi va ekologik xususiyatlari tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada dala tajribalari, fenologik, introduksion va olingan ma'lumotlarni statistik qayta ishlashda umumqabul qilingan usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Jizzax shahri tuproq iqlim sharoitida introduksiya qilingan manzarali daraxt va butalarning 23 oila, 41 turkumga mansub 70 turi aniqlangan.

havo harorati, tuproqning nisbiy namligi hamda yillik yog‘ingarchilik miqdoriga bog‘liq holda istiqbolli introdutsentlarning biologik xususiyatlari ochib berilgan;

introdutsentlarning sutkalik va mavsumiy gullash biologiyasi, dala sharoitida urug‘larning unuvchanligi ochib berilgan;

Jizzax shahri sharoitida daraxt va butalarning manzaraliligi, chihdamlilik xususiyatlari aniqlanib introduksion baholangan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

introdutsentlarning Jizzax shahri sharoitida o‘sishi va rivojlanish xususiyatlari, dala sharoitida urug‘lar unuvchanligi hamda urug‘idan ekilgan introdutsent turlardan shahar hududini ko‘kalamzorlashtirishda foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan;

Jizzax shahriga introduksiya qilingan manzarali daraxt va butalarning istiqbolli turlari aniqlanib, ularni shahar iqlim sharoitlarida yetishtirish va parvarishlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi** ishda qo‘llanilgan klassik va zamonaviy usul hamda ilmiy yondashuvlar asosida olingan natijalarning nazariy ma‘lumotlarga mos kelishi, natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, zamonaviy metodlar asosida statistik tahlil qilinganligi hamda dissertatsiya tadqiqotining amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi, o‘rganilgan manzarali daraxtlarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Jizzax shahri sharoitida manzarali daraxt va butalar introduksiyasining bioekologik xususiyatlari, tanlab olingan turlarning o‘sinh va rivojlanishi, mavsumiy gullash biologiyasi, dala sharoitida urug‘ unuvchanligi hamda bioekologik xususiyatlarini inobatga olib, ko‘kalamzorlashtirish uchun foydalanish mumkinligi va istiqbolli bo‘lgan introdutsentlarning bioxilma-xilligini saqlash, ulardan keng foydalanish yo‘llarining asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalarni turli mintaqalaridan keltirilgan, respublikamizda mavjud bo‘lgan introdutsentlarning tuproq va iqlim sharoitlariga chidamli bo‘lgan turlarni Jizzax shahrini obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirishda foydalanishga xizmat qiladi-

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Jizzax shahrida introduksiya qilingan manzarali daraxtlarning turlar xilma-xilligini aniqlash hamda bioekologik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Introduksiya qilingan manzarali daraxt va butalarning mavsumiy rivojlanish maromi, introduksiya qilingan hududning o‘ziga xos tabiiy iqlim sharoitlariga adaptatsiyasi hamda ekologik muhit omillariga bog‘liq holda manzarali daraxt va butalar vegetatsiyasining davomiyligi, o‘zgarib borish sabablari Jizzax shahrining obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish departamenti faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining 2022-yil 29-apreldagi 04-02/7-686-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Jizzax shahrida introduksiya qilingan istiqbolli daraxt va butalaridan hududni

ko'kalamzorlashtirish ishlarida foydalanib, manzarali daraxt va butalarning mavsumiy gullashi biologiyasi, dala sharoitida urug' unuvchanligi hamda umumiy vegetatsiyasini davomiyligini oshirish imkonini bergan;

Jizzax shahri sharoitida ko'kalamzorlashtirishda keng foydalanish uchun *Platycladus*, *Juniperus*, *Paulownia*, *Rhus*, *Pinus*, *Gleditsia*, *Magnolia*, *Betula* turkumi turlarining introduksiya qilingan muhitining tabiiy iqlim sharoitlariga moslashuvchanligi va chidamliligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Zomin davlat o'rmon xo'jaligi hududini ko'kalamzorlashtirishiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining 2022-yil 6-apreldagi 03/18-1697-son ma'lumotnomasi). Natijada manzarali, daraxt va butalarning o'sishi va rivojlanishini, hudud uchun istiqbolli xususiyatlarini to'liq namoyon qilishini hamda haroratning ijobiy o'zgarishiga imkon bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 102 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Introdutsentlar bo'yicha olib borilgan botanik tadqiqotlar tahlili. Hududning tabiiy-iqlim sharoiti. Tadqiqot obykti va metodlari”** deb nomlangan bobning birinchi bo'limida, introduksiya tarixi hamda uning rivojlanib borishi xususidagi ma'lumotlar keltirilgan. Bobning ikkinchi bo'limida tadqiqot yo'nalishi bo'yicha xorijda va respublikamiz miqyosida olib borilgan dendrologik ilmiy izlanishlarning tahlili keltirilgan.

Bobning uchinchi bo'limida tadqiqot olib borilgan hududning tuproq-iqlim sharoiti borasidagi (iqlimi, tuprog'i, yog'in miqdori) ma'lumotlar keltirilgan. Bobning to'rtinchi bo'limida tadqiqot obykti va metodlari batafsil yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Turlarning taksonomik va tabiiy tarqalish areallari tahlili”** deb nomlanadi. Bobning birinchi bo'limida turlarning taksonomik tahlili xususidagi ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Jizzax shahriga introduksiya qilingan 70 turdan iborat daraxtlar (64 tur) va

butalarning (6 tur) taksonomik tahlili ularning 23 oila 41 turkumga mansubligini ko'rsatdi. Shundan ochiq urug'lilar 3 oila, 7 turkum, 12 tur, yopiq urug'lilar esa 20 oila, 34 turkum, 58 turga mansub ekanligi aniqlandi (1-rasm).



### 1-rasm. Jizzax shahridagi daraxt va butalarning turlar soni bo'yicha yetakchi oilalari

Jizzax shahridagi turlarning ham taqsimlanishi bir xil darajada emas. Xususan, introdutsentlar orasida Salicaceae oilasi vakillari son jihatdan ustunlik qiladi (12 ta tur). Bu oila vakillarining ulushi 17,1 % bo'lib, *Salix* va *Populus* turkumiga mansub turlarni qamraydi. Anacardiaceae, Bignoniaceae, Cannabaceae, Moraceae, Platanaceae oilalarining 2 ta (2,63%) dan, qolgan 10 ta oiladan esa bitta (1,31%) dan turlarning o'sishi aniqlandi.

Bobning ikkinchi bo'limi turlarning turli floristik viloyatlardan kelib chiqishi tahliliga bag'ishlanadi. Jizzax shahriga introduksiya qilingan 70 ta turdan iborat daraxt va butalarni botanik-geografik tahlili A.L. Taxtajanning dunyoni botanik-geografik bo'linishi bo'yicha bergan tavsiyasiga muvofiq amalga oshirilgan. Tahlillar natijasida 70 turdan iborat daraxt va butalarning 67 tasi (96%) Golarktik, 3 tasi (4%) Paleotropik podsholikka kiruvchi viloyatlarga mansub ekanligi aniqlandi. Golarktik podsholikka mansub turlarning 6 ta: Eron-Turon, Sharqiy Osiyo, Shimoliy Amerika Atlantik, O'rtayerdengizi, Sirkumboreal va Madrean oblastlaridan, Paleotropik podsholikka mansub daraxt va butalarning esa Sudan-Zambiya, Hind, Hindixitoy va Malayziya oblastlaridan kelib chiqqanligi ma'lum bo'ldi. Introdutsentlar kelib chiqishining asosiy ulushi (53,32%) quyidagi viloyatlarga to'g'ri keladi: Eron-Turon, Sharqiy Osiyo, Shimoliy Amerika Atlantik. 59 ta turning tabiiy areali esa bitta viloyat hududiga to'g'ri kelib, qolgan 11 turi 2-3 ta viloyatlar hududida joylashgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Turlarning bioekologik xususiyatlari**” deb nomlanadi. Bobning birinchi bo‘limida turlarning o‘shish va rivojlanish (fenologiya) xususiyatlari bayon etilgan. Jizzax shahriga introduksiya qilingan daraxt va butalarni fenologiyasini o‘rganish natijalari mavsumiy rivojlanish asosiy davrlarining boshlanishi, uning davomiyligi va tugashi yilning ob-havo sharoiti va o‘simlikning yoshi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar o‘simliklarni Jizzax shahri sharoitida keng miqyosida foydalanish hamda hududlar kesimida tavsiya etish imkonini beradi.



A

B

C

**2-rasm. *Aesculus hippocastanum***

Introduksiya qilingan daraxtlar va butalarda kurtaklarning bo‘rtishi, barglarning yozilishi, novdalarning o‘shishi, gullash fazasining boshlanishi, gullashning davomiyligi, mevalarning hosil bo‘lishi va yetilishi kabi fenofazalar qayd qilindi.

Fasliy o‘zgarishlarni o‘rganish natijasida olingan ma‘lumotlarga asoslanib daraxt buta turlarini fenospektri tuzildi. Turlarning rivojlanishida tashqi muhit omillari eng muhim jihatlardan hisoblanadi. Metereologik tahlillar natijasi shuni ko‘rsatdiki, tadqiqot hududida yil davomida o‘rtacha harorat 14-17°C ni tashkil qiladi. Qish oylarida havoning keskin sovib ketishi hamda yoz oylarida haroratning keskin oshib ketishi daraxtlarning holatiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Ayrim yillarda mart oylarida ham haroratning keskin ko‘tarilishi kuzatilmaydi. Bu esa o‘simliklar vegetatsiyasining ma‘lum vaqt kechikishiga olib keladi. Bahor oylarining ayrim kunlarida haroratning pasayib ketishi yoki qor yog‘ishi gullash fazasidagi o‘simliklarga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, ayrim turlarning gullash fazasiga o‘tishini kechiktiradi.

Tadqiqotlar davomida olingan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Jizzax shahriga introduksiya qilingan yopiq urug‘li manzarali daraxt va butalarni fenologiyasini o‘rganish asosida vegetatsiyasining boshlanishi va tugashiga ko‘ra ular quyidagi fenoguruhlarga ajratildi. Mazkur tahlillar turlardan turli xil assortimentlarda foydalanish hamda muntazam ravishda sifatli kompozitsiyalar yaratish imkonini beradi. Bu esa obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi (1-jadval).

## Jizzax shahridagi daraxt va butalarning fenologik guruhlari

Indeksi	Fenologik guruhlari	Turlar soni	Umumiy ro'yxatga nisbatan %
EE	Vegetatsiyasini erta boshlovchi va erta yakunlovchi	13	18,6
EK	Vegetatsiyasini erta boshlovchi va kech yakunlovchi	34	51,2
KE	Vegetatsiyasini kech boshlovchi va erta yakunlovchi	20	14,3
KK	Vegetatsiyasini kech boshlovchi va kech yakunlovchi	13	18,6

Izoh: E-erta; K-kech

Tadqiqot turlarida vegetatsiyasining davomiyligiga qarab ular, vegetatsiyani erta boshlovchi va erta yakunlovchi (EE) - guruhi 13 ta turni o'z ichiga oladi (18,6 %). Bu guruh vakillarining vegetatsiya davomiyligi o'rtacha 195-210 kunni tashkil qiladi. Vegetatsiyasini erta boshlovchi va kech yakunlovchi guruh vakillari, qolgan guruhlarga nisbatan ko'proq ulushni tashkil etishi aniqlandi. Ularni 34 tur bilan ishtirok etib, umumiy turlarning yarmidan ko'pini tashkil qiladi (51,2 %). Mazkur turlarning vegetatsiya davomiyligi 245-260 kunni tashkil qiladi.

Vegetatsiyasini kech boshlovchi va erta yakunlovchi (KE) - vakillari eng kam tur bilan ishtirok etib, ularning soni 20 tani tashkil qiladi. Ular umumiy ulushning 14,3 % ini tashkil qiladi. Ularning vegetatsiya davomiyligi 180-195 kunni tashkil qiladi. Vegetatsiyasini kech boshlovchi va kech yakunlovchi (KK) - guruhiga 13 ta (18,6 %) tur kirishi va ular vegetatsiyasi davomiyligi o'rtacha 200-230 kun atrofida bo'lishi aniqlandi.

Bobning ikkinchi bo'limida turlarning mavsumiy gullash maromi xususida ma'lumotlar keltirilgan. Turlarning gullash biologiyasini o'rganish birinchi navbatda ulardan sifatli urug'lar olish hamda manzarali o'simlik sifatida keng foydalanish imkonini beradi. Tadqiqotlar davomida Jizzax shahrida tarqalgan yopiq urug'li o'simliklarning gullash biologiyasi 5 ta daraxt (*Aesculus hippocastanum*, *Betula tianschanica*, *Broussonetia papyrifera*, *Buxus sempervirens*, *Ulmus pumila*) hamda 3 ta buta (*Hibiscus syriacus*, *Syringa vulgaris*, *Lagestroemia indica*) turlarida o'rganildi.



3-rasm. *Syringa vulgaris*

Turlarning mavsumiy gullash davomiyligi tahlillari shuni ko'rsatdiki, bu holat daraxtlarda 25-35 kun va butalarda nisbatan uzoqroq davom etishi qayd etildi (23-47 kun). 2019 yil may oyida havo haroratining ortib ketishi natijasida *Syringa*

*vulgaris* gullash davomiyligi birmuncha tezlashganligini kuzatildi. Bu turning gullashi aprel oyining birinchi dekadasi dan boshlab may oyining ikkinchi dekadalarigacha davom etishi qayd etildi (3-rasm).

Gullash vaqti eng ko‘p vaqt davom etgan turlar qatoriga *Lagestroemia indica*, *Hibiscus syriacus* kirib, ularning gullash davomiyligi o‘rtacha 41-47 kun atrofida bo‘lishi qayd etildi (2-jadval).

## 2-jadval

### O‘rganilgan turlarning mavsumiy gullash davomiyligi, (n=10)


№	Tur nomi	G‘unchalashi	Gullashi			Gullash ning davomiyligi, kun	Ochilgan gullar soni
			Boshlanishi	Yalpi gullashi	Yakuni		
1	<i>A.hippocastanum</i>	05.04	12.04	21.04	03.05	28	24.9±1.59
2	<i>B. tianschanica</i>	18.04	23.04	28.04	04.05	16	27.5±2.26
3	<i>B.papyrifera</i>	03.04	08.04	21.04	03.05	28	29.6±2.1
4	<i>B. sempervirens</i>	02.04	08.04	14.04	19.04	18	49.4±3.20
5	<i>H. syriacus</i>	20.05	28.05	14.06	04.07	47	17±1.60
6	<i>L. indica</i>	09.06	15.06	01.07	29.07	50	48.5±1.73
7	<i>S. vulgaris</i>	09.04	12.04	20.04	02.05	23	16.7±0.94
8	<i>U. pumila</i>	27.03	06.04	16.04	24.04	28	21.9±1.95

Bobning uchinchi bo‘limi turlarning urug‘ unuvchanligiga bag‘ishlangan. Dala sharoitidagi urug‘lar unuvchanligining muhim jihatlaridan biri bu sharoitdagi unuvchanlik holatini tiklashda hamda manzarali o‘simliklar ko‘chatlarini keng ko‘lamda yetishtirishga qaratilgan chora tadbirlarda asqotadi. Mazkur sharoitda 6 va 12 oy davomida saqlangan urug‘larning unuvchanligi o‘rganildi. Olingan natjalarga ko‘ra, dala sharoitida unuvchanlik laboratoriya sharoitiga nisbatan bir necha barobar past bo‘ladi. Mazkur holatni tuproq-iqlimning ta’siri bilan izohlash mumkin. Ta’kidlanganidek, sutka mobaynida havo va tuproq harorati keskin o‘zgarib turadi.

Kunduzi o‘rtacha havo harorati 20-25 °C bo‘lsa, kechki paytlarda 10-14 °C ga yetadi. Bu esa urug‘larning unib chiqishi uchun zarur haroratni o‘z vaqtida to‘plashiga hamda murtakning unishiga noqulaylik tug‘diradi.

Dala sharoitida, urug‘larning unuvchanligi 6 oy va 12 oy davomida saqlangan urug‘larda olib borildi. Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, daraxt va buta urug‘larining saqlanish borishi ortib borgan sari, urug‘larning unuvchanligi pasayishi kuzatiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida 12 oy saqlangan urug‘larning unuvchanligi eng yuqori ko‘rsatkich *Aesculus hippocastanum* 51,5 % ni, *Betula tianschanica* 39.5 % ni, *Buxus sempervirens* 25.2 % ni, *Broussonetia papyrifera* 26.7 % ni, *Hibiscus syriacus* L 18 % ni, *Lagestroemia indica* 28.75 % ni, *Syringa vulgaris* L 29.5 % ni, *Ulmus pumila* L 33.25 % gacha unishi qayd etildi 6 oy davomida saqlangan urug‘larning unuvchanligi esa *Aesculus hippocastanum* 61.75 %, *Betula tianschanica* 48.75 %, *Broussonetia papyrifera* 42.5 %, *Ulmus pumila* 33.25 %, *Buxus sempervirens* 32.25 %, turlarining urug‘ining unishi 30-50% gacha kuzatildi. *Hibiscus syriacus* (26.25 %), *Lagestroemia indica* 28.75 %, *Syringa vulgaris* 29.5 % kabilarning urug‘larining unishi 20-30 % gacha bo‘lishi qayd etildi (4-rasm).



**4-rasm Turli muddatlarda saqlangan urug‘larining dala sharoitida unuvchanligi (% da)**

Aynan mazkur xildagi olingan natijalar turlarni keng ko‘lamda respublikamizning barcha hududlariga tavsiya etishda foydalaniladi. 6 oy davomida saqlangan *Pinus nigra* unuvchanligi 64,5 % hamda 12 oyda saqlangan urug‘larning unuvchanligi 79 % bo‘lishi qayd etilgan. 6 oy davomida saqlangan *Platycladus orientalis* unuvchanligi 60,25 % hamda 12 oy davomida saqlangan urug‘larning unuvchanligi 71,25 % bo‘lishi qayd etilgan.

Mazkur yo‘nalishda olib borilgan boshqa tadqiqotlarda *Platycladus orientalis* unuvchanligi biroz yuqori qiymatda bo‘lishi qayd etilgan. Bu bevosita hududlarning iqlim sharoiti hamda yillik yog‘in miqdori bilan ham bevosita bog‘liq hisoblanadi (Temirov, 2019).

Dissertatsiyaning “**Daraxt va butalarning ekologik omillarga munosabati va introduksion baholash**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida, daraxtlar holatining zamonaviy monitoringi, ularning ekologik xususiyatlari, introduksion baholash va agrotexnik tadbirlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Bobning birinchi bo‘limi daraxt va butalarning ekologik omillarga munosabati va ularning monitoringiga bag‘ishlangan. Daraxt o‘simliklarni introduksiya qilish madaniy florani, himoya daraxtzorlari va rekreatsion daraxtzorlarni boyitishga, botanika bog‘lari va dendrariylar asosida tashkil qilingan sun‘iy rezervatlardagi o‘simliklar genofondini saqlash maqsadida amalga oshiriladi.


Turlar holatining zamonaviy monitoringi ulardan maqsadli foydalanishda va shaharsozlikning uzoq yillik rejalarda tuzishda ham keng foydalaniladi. Jizzax shahriga introduksiya qilingan daraxt va butalarning ekologik omillarga munosabati ilmiy manbalarda berilgan ma’lumotlar va kuzatish natijalari asosida keltirildi. Bunda o‘simliklarning haroratga, namlikka, yorug‘likka va tuproqning tarkibiga

munosabati e'tiborga olindi. Tadqiqot obyektlari hisoblangan 70 turning yuqorida keltirilgan omillarga bo'lgan munosabati dissertatsiyada batafsil keltirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida introdutsentlarning turli xil ekologik omillarga munosabati qiyosiy tahlil qilindi, va quyidagicha guruhlariga ajratildi. Namlikka bo'lgan munosabatiga ko'ra: kserofit, mezofit, kseromezofit va mezokserofit o'simliklar guruhlariga ajratildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida kserofit o'simliklar 6 turdan iborat bo'lib 8,6% ni, mezofit o'simliklar 42 turdan iborat bo'lib 60% ni, mezokserofit o'simliklar 7 turdan iborat bo'lib 10% ni va kseromezofit o'simliklar esa 15 turdan iborat bo'lib 21,4% ni tashkil qildi. Ma'lumki, o'simliklarning asosiy hayotchanligi hamda vegetatsiya davomiyligi yorug'lik bilan bevosita aloqadorlikda amalga oshiriladi.

O'rganilgan turlarning yorug'likka munosabati 3 guruhga bo'linib, ular soyasevar, yorug'sevar va soyaga chidamli turlar hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasida introdutsentlarning yorug'likka bo'lgan talabiga ko'ra soyasevar o'simliklar o'rtacha 8 turni (11,4%), yorug'sevar o'simliklar 36 turni (51,4%) va soyaga chidamli o'simliklar 26 turni (37,2%) tashkil qilganligi aniqlandi.

Introduksiya qilingan daraxt va butalarning o'sish va rivojlanishida tuproqning o'rnini muhim hisoblanadi. O'z navbatida tuproqqa bo'lgan talabiga ko'ra o'simliklar bir necha guruhlariga bo'linishi kuzatildi (5-rasm).



**5-rasm. Daraxt va butalarni namlikka ko'ra ekologik guruhlari bo'yicha taqsimlanishi (% da)**

**Tadqiqotlar davomida Jizzax shaxridagi ko'chalarning uzunligi hamda undagi manzarali daraxt va butalarning soni aniqlandi.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur ko'chalarning umumiy uzunligi 39 km dan ortiq ekanligi kuzatildi. Mazkur ko'chalarda 20206 ta manzarali daraxt va butalar uchrashi kuzatildi. O'rtacha har bir ko'chada 1010,3 tadan manzarali o'simliklar uchrashi qayd etildi. Eng yuqori ko'rsatkich O.Azimov va Sh.Rashidov ko'chalarida

kuzatildi. Mazkur ko‘chalar o‘zining yirikligi bilan boshqa ko‘chalardan yaqqol farq qiladi. Mazkur ko‘chalarning uzunligi 4,8-5,2 km atrofida bo‘lib, ularda mos ravishda 3933-4527 ta (8460) atrofida daraxt va butalar uchraydi. Mazkur 2 ta ko‘chadagi daraxtlar soni, shahar hududidagi manzarali o‘simliklarning 41,86 % ni tashkil qiladi. Navbatdagi o‘rinni tuplar soni bo‘yicha Sayxunobod, Kimyogar va Uch ariq ko‘chalari egallaydi. Mazkur ko‘chalarda ham tuplar soni 1000 tadan ortiq ekanligi qayd etildi. Eng quyi ko‘rsatkichlar Afrosiyob va Sayljoyi ko‘chalarida qayd etildi. Mazkur ko‘chalarda tuplarning soni 110-141 ta atrofida bo‘lib, ushbu holatni ko‘chalarning kichikligi bilan ham izohlashimiz mumkin.

Jizzax shahri hududida bahorning oxirgi oylari hamda yoz faslida chang miqdorining oshib ketishi kuzatiladi. Mazkur holatda daraxt va butazorlar nafaqat manzaralilik xususiyati, balki shahar ko‘chalaridagi havoni muntazam ravishda almashtirib (tozalab) turish vazifasini bajaradi. Shu bilan birgalikda uni tozalashga ham xizmat qiladi. Havodagi zararli gaz va mikroorganizmlarni 40-45 % gacha kamaytirish xususiyatiga ega. Dunyoning rivojlangan shaharlarida introduksiya qilingan daraxtzorlardan shovqinga qarshi kurashishda ham keng foydalaniladi. Bu borada keng yaproqli daraxtlar eng yuqori samara beradi. Ular shovqinni 25% ini o‘zida singdirib, 75 % ini qaytaradi. Bu borada rivojlangan shaharlarda imkoni boricha, 10-15 m balandlikdagi daraxtlardan foydalanish belgilangan.

Bobning ikkinchi bo‘limi daraxtlarni introduksion baholashga bag‘ishlangan. Tadqiqotlar davomida Jizzax shahrida manzarali o‘simlik sifatida keng foydalaniladigan ochiq va yopiq urug‘li daraxtlarning 10 tasi introduksion jihatdan 3 ta guruh bo‘yicha quyidagicha baholandi:

I guruhga to‘liq istiqbolli (91-100) bo‘lgan turlar ya’ni bular *Pinus nigra* subsp. *P.pallasiana*, *Broussonetia papyrifera*, *Ulmus pumila* va *Hibiscus syriacus* turlari ko‘rsatkichlarning deyarli barchasida yuqori ball olganini ko‘rishimiz mumkin. Jizzax shahri sharoitida bu turlarning o‘sishi va rivojlanishi ham juda yaxshi hisoblanadi;

II guruhga istiqbolli (76-90) bo‘lgan turlar *Syringa vulgaris* novdalanish qobilyati boshqa turlarga nisbatan ancha pastroq, ko‘payish jihatdan tabiiy vegetativ yo‘l bilan ko‘payadi, *Platyclus orientalis* turi novdalarning yog‘ochlanishi past, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi o‘rtacha va sun‘iy ravishda ekiladi. *Lagestroemia indica* novdalarining yog‘ochlanishi boshqa turga nisbatan pastroq, sovuqqa, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi o‘rtacha va o‘zidan yaxshi ko‘payadi. *Aesculus hippocastanum* issiq va sovuqqa chidamliligi biroz pastroq va bu tur faqat sun‘iy ravishda ekiladi.

III guruhga kamroq istiqbolli (61-75) turlar: *Betula tianschanica* 71 ballni novdalanish qobiyati past, issiqqa, sovuqqa, kasallik va zararkunandalarga boshqa turga nisbatan chidamsizroq bo‘ladi. *Buxus sempervirens* (72 ball) ham *Betula tianschanica* singari novdalanish qobiyati past, issiqqa, sovuqqa, kasallik va zararkunandalarga boshqa turga nisbatan chidamsizroq hamda faqatgina insonlar tomonidan ekiladi.

Xulosa qilib aytganda, introduksion baholash natijalariga ko‘ra tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan turlarning barchasi istiqbolli hisoblanib, Jizzax shahri va respublikamizning barcha hududlariga ekib ko‘kalamzorlashtirishimiz mumkin.

Ularning ko‘plab, yalpi miqyosda ko‘paytirish mumkinligi introdutsentlarning o‘shish va rivojlanishiga yaxshi moslashganligi, issiqqa, sovuqqa, qurg‘oqchilikka, zararkunanda va kasalliklarga chidamliligi introduksion baholash mezonlaridan muvaffaqiyatli o‘tganligini ko‘rishimiz mumkin.

## XULOSA

“Jizzax shahrida introduksiya etilgan daraxt butalarning turlar xilma-xilligi va bioekologik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Ilk bor Jizzax shahriga introduksiya qilingan daraxt va butalarning taksonomik tarkibi aniqlanib, hududda yopiq urug‘li daraxtlar 20 oila, 34 turkum, 58 turi hamda ochiq urug‘li manzarali daraxtlar 3 oila, 7 turkum, 12 turdan iborat ekanligi qayd etildi.

2. Introduksiya qilingan daraxt va butalarning aksariyat tabiiy tarqalish maydoni Golarktik va Palearktik biogeografik viloyatlari hisoblanadi. Jizzax shahriga introduksiya qilingan daraxt va butalar tabiiy arealiga ko‘ra bir-biridan keskin farq qilishi qayd etildi. Introdutsentlarning asosiy qismi Golarktik podsholik (93,3%) ka, atigi 5 tur (6,66 %) Paleotropik podsholikka mansubligi aniqlandi

3. Erta bahor shahar sharoitida o‘rtacha havo harorati +5-11 °C bo‘lganda, manzarali o‘simliklar o‘z vegetatsiyasini boshlashi aniqlandi. Fenologik tahlil natijalariga ko‘ra, turlarning vegetatsiya davomiyligi 195-245 kungacha davom etadi. Yil davomida introdutsentlarning vegetatsiya davomiyligi va o‘shish rivojlanishi tashqi muhit omillariga (harorat, namlik) bog‘liq holda o‘zgarib borishi kuzatiladi.

4. Jizzax shahri sharoitida daraxt va butalarning vegetatsiya davrida o‘shish xususiyatlariga ko‘ra, qariyotgan daraxtlarning o‘shuvchi novdalari kamayadi, bo‘yi qisqaradi hamda yog‘ochlik halqalari torayadi. Ayrim xildagi tuplarda yangi organlarning shakllanishi kuzatilmaydi hamda ularning hayotchanligi susayib boradi. Yillar kesimida bahorning erta kelishi yoki qish faslining uzoq muddat davom etishi, turlarning mavsumiy rivojlanish maromiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

5. Tadqiqot turlarning mavsumiy gullash davomiyligi 25-47 kun atrofida bo‘lib, eng quyi ko‘rsatkich *Betula tianshanica*, *Buxus sempervirens* (15-18 kun) turlarida hamda eng yuqori ko‘rsatkich *Aesculus hippocastanum*, *Ulmus pumila*, *Hibiscus syriacus*, *Lagerstroemis indica*, *Broussonetia papyrifera* (28-43 kun) turlarida bo‘lishi qayd etildi. Bitta gulning ochilib turishi 4-11 kunni tashkil qilib, shahar sharoitida turlarning gullashi asosan mart oyining ikkinchi dekadasi dan to aprel oyining oxirlariga qadar davom etadi.

6. Dala sharoitida urug‘larning unuvchanligi nisbatan quyi ko‘rsatkichga ega ekanligi kuzatildi. 12 oy davomida saqlangan urug‘larning unuvchanligi 18-64,5% ni tashkil qiladi. 6 oy davomida saqlangan urug‘larning unuvchanligi 12 oy davomida saqlanganlarga nisbatan yuqori bo‘lib, 26,25-79 % ni tashkil qiladi. Daraxt va butalar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar hamda mavjud manbalar shuni ko‘rsatadiki, urug‘larning saqlanib borishi ortib borgan sari urug‘larning unuvchanligi pasayib boradi.

7. Introdukcion baholash natijasida Jizzax shahri sharoitida tadqiqot obykti sifatida tanlab olingan turlarning barchasi istiqbolli hisoblanib, Jizzax shahri va respublikamizning baracha hududlariga ekib ko‘kalamzorlashtirishimiz mumkin. Ularning ko‘plab, yalpi miqyosida ko‘paytirish mumkinligi introdutsentlarning o‘shish va rivojlanishiga yaxshi moslashganligi, issiqqa, sovuqqa, qurg‘oqchilikka, zararkunanda va kasalliklarga chidamliligi va moslashuvchanligi isbotlangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.V.02.08 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКО ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

---

**ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ИШАНКУЛОВА ДИЛАФРУЗ УЛУГБЕК КИЗИ**

**ВИДОВОЕ РАЗНООБРАЗИЕ И БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ХАРАКТЕРИСТИКИ ИНТРОДИЗИРОВАННЫХ ДЕРЕВЬЕВ И  
КУСТАРНИКОВ В ГОРОДЕ ДЖИЗАК**

**03.00.05 - Ботаника**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Самарканд – 2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2021.1.PhD/B542.

Диссертация выполнена в Джизакском государственном педагогическом университете.  
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Хайдаров Хислат Кудратович</b> доктор биологических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Келдияров Худояр</b> кандидат биологических наук, профессор <b>Рахимова Тура</b> доктор биологических наук, профессор
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Гулистанский государственный университет</b>

Защита диссертации состоится «6» декабря 2024 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.B.02.08 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Актовый зал Института биохимии Самаркандского государственного университета. Тел.: (+99866) 239-11-40; факс (+99866) 239-11-51; E-mail: [devonxona@samdu.uz](mailto:devonxona@samdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрирован за №125). Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15, Центр информационных ресурсов. Тел.: (+99866) 239-11-51.

Автореферат диссертации разослан «20» ноября 2024 года.  
(Протокол реестра рассылки № 14 от «20» ноября 2024 года)



**Т.Ф.Ражабов**  
Председатель научного совета  
по присуждению учёных степеней, д.б.н

**М.С.Кузнев**  
Ученый секретарь научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
(PhD), доцент

**С.Х.Уроков**  
Заместитель председателя научного семинара  
при научном совете по присуждению  
учёных степеней, д.б.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы.** В результате развития градостроительной и промышленной отраслей в мировом масштабе озеленение жилых территорий и оптимизация микроклимата требуют широкого использования декоративных деревьев и кустарников. Эффективное использование декоративных деревьев и кустарников, интродуцированных в процессе быстрого развития городской урбанизации и изменения биологического разнообразия, является одним из важных направлений современной ботаники. В современных дендрологических исследованиях признается необходимость покрытия жилых территорий зелеными насаждениями, состоящими из деревьев и кустарников. С этой точки зрения очень важно на основе озеленения и благоустройства жилых территорий интродуцировать декоративные деревья и кустарники, устойчивые к различным климатическим факторам, изучать их адаптивность к различным абиотическим и биотическим факторам, таксономический состав, биоэкологические особенности и осуществление мониторинга имеет важное научное и практическое значение.

В мире при озеленении населенных пунктов с развитой сетью промышленной инфраструктуры особое внимание уделяется деревьям и декоративным формам, обладающим высокими характеристиками гибкости и жизнеспособности, устойчивыми к различным факторам. Здесь особое значение имеют широко используемые в озеленении деревья и кустарники с открытыми и закрытыми семенами. В частности, для озеленения резко континентальных и засушливых регионов Средней Азии широко внедряются виды *Picea*, *Platycladus*, *Juniperus*, *Paulownia*, *Rhus*, *Pinus*, *Catalpa*, *Acer*, *Fraxinus* и другие. Научное обоснование особенностей роста и развития данных видов растений требует разработки способов определения их устойчивости к различным факторам и повышения эффективности размножения. При этом, определение биоэкологических особенностей видов и рекомендации по их озеленению в широких масштабах имеют важное научно-практическое значение.

В настоящее время внимание уделяется благоустройству, улучшению инфраструктуры и озеленению в соответствии с правилами современной архитектуры городов нашей республики. В связи с этим, были расширены образцы деревьев и кустарников, подходящих для резко континентального климата, акклиматизированы новые виды и сорта, устойчивые к озеленению, а их перспективные представители внедрены в сети благоустройства регионов нашей республики. В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан определена задача «...охрана окружающей среды и предотвращение экологических проблем, вносимых в генофонд»<sup>2</sup>. Здесь, обоснование биологических особенностей важных декоративных пород деревьев и кустарников в суровых континентальных климатических условиях,

---

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года №УП-4947 “О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан”

определение изменения в них под воздействием различных факторов окружающей среды и разработка мер по их применению в целях озеленения имеет важное научно-практическое значение.

